

## PSIXOLOGIYA FANLARINI O'QITISH METODIKASI

*Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani 20 maktab psixologi*

*Malikova Hurshidaxon Yusuffjonovna*

*56-maktab psixologi Yo'ldasheva Muqaddasxon Murodjon qizi*

*30- maktab psixologi Raxmonova Mohiraxon Olimjon qizi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi, psixologiyafanlarini o'qitish metodikasi fanining nazariy masalalari, psixologiya o'quv fani sifatida o'qitish shakli va usullarining o'ziga xosligi, psixologiya fanining nazariy muammolari haqida batafsil bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** psixologiya, o'qitish metodikasi, nazariy masalalar, tadqiqot metodlari.

**Kirish:** Psixologiya o'quv fani sifatida o'qitish shakli va usullarining o'ziga xosligi bilan farq qiladi. Psixologiya o'quv fani sifatida maqsadi, hajmi, tuzilishi, usullari va ifoda etilishi bo'yicha farqlar mavjud. Psixologiya fanining maqsadi — fan tomonidan qo'lga kiritilgan ma'lumotlar va qonuniyatlar haqida o'quvchilarga, talabalarga axborotlarni yetkazishdan iborat. O'quv darsini olib borishga vaqt cheklangan bo'lib, bunda o'quvchilar ortiqcha ma'lumotlar bilan band etmay mustahkam ilmiy asosdagi bilimlar va muammolar bilan tanishtiriladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya:** Psixologiyani o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan qonuniyatlar asosida metodika fan sifatida belgilandi. Metodika o'zining o'rganish obyektiga ega bo'lib u psixologiyaning tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi o'qitishning barcha masalalarini qamrab oladi. Uning boshqa o'quv fanlari metodikalaridan farq qiluvchi jihati psixologiyani o'rganish xususiyatlari, sabablari o'ziga xosliklari mavjud bo'lib shunga bog'liq ravishda o'qitish usullari qo'llaniladi. Fan o'zining kashf etgan qonuniyatlari asosida

hodisalarning bog‘liqlik sabablarini tushuntirib beradi va shu bilan bu hodisani ma’lum sharoitlarda deyarli takrorlash imkonini beradi. Hozirgi davrda psixologiya fanining muhim, dolzarb vazifalaridan biri — bu uning tadqiqot metodlari va prinsiplarini nazariy hamda metodologik jihatdan chuqurroq tadqiq qilishdan iboratdir. Jumladan, kuzatish juda sodda, ikki ko‘rinishga ega bo‘lgan amaliy tajriba metodi tariqasida tahlil qilinmasdan, balki uning murakkablik xususiyatiga xos metodikalarni qamrab olish zarurligini ta’kidlab o‘tish, natijalarni qayd qilishning o‘ta murakkab texnologiyasi mavjudligini, ijtimoiy psixologik yondashuvda u alohida ahamiyat kasb etishini uqtirib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

**Natijalar:** Psixologiya fanining nazariy muammolari qatoriga yana insonning inson tomonidan idrok qilinishini kiritish mumkin. Chunki insonning ayrim xususiyatlari uning yuz alomatlari, chehrasidagi o‘zgarishlar, tana a‘zolarining harakatlari orqali aniqlanadi. Odamning tashqi ko‘rinishiga asoslanib, uning xarakter xususiyatlari, xislatlari yuzasidan ishonchli mulohaza bildirish ko‘p asrlik tadqiqot tarixiga ega bo‘lsada, lekin muammoning tub ilmiy negizi endigina kengroq o‘rganilmoqda. Shuni alohida ta’kidlash zarurki, psixologiyada refleksiya, ya’ni o‘zini o‘zi anglash shaxsning barcha hissiy, bilishga oid, irodaviy, boshqaruv xususiyatlarini oqilona baholashni bildiradi, degan qarashlar to hozirgi kungacha davom etmoqda. Bunday yo‘sindagi ilmiy talqin qilish inson tomonidan o‘zini o‘zi aks ettira olishni bildiradi, xolos. Lekin o‘zga kishilar uning shaxsiy sifatlarini qay hajmda bilishadi, unda qanday baholash imkoniyati mavjud, uning nimalarga qodir ekanligini tushuna olishadimi, degan savollarga javob berish orqali anglashning boshqa qirralarini aniqlash mumkin.

**Muhokama:** Psixologiya o‘qitishni qulaylashtirish va takomillashtirishning yana bir muhim yo‘li - o‘qituvchilarga va talabalarga mo‘ljallangan o‘quv qo‘llanmalari, darsliklar, uslubiy ko‘rsatmalar, tavsiyalar, ishlanmalar ishlab chiqishdir. Mazkur muammo yechimining navbatdagi yo‘li — har bir psixolog o‘qituvchini attestatsiyadan o‘tkazish, shartnoma asosida ishlash mezoniga rioya

qilishdan iboratdir. Bu muammo rivojlangan mamlakatlarda allaqachon o`z yechimini topgandir.

Insonlar o`zaro bir—birini idrok qilish jarayonida, birinchidan, haqiqatan ham idrok qilinayotgan shaxsning asl ruhiy qiyofasi ifodalanishida; ikkinchidan, shaxs o`zini aniq tasavvur qilib, to`g`ri baholay olishi; uchinchidan, shaxsning boshqa odamlar tomonidan anglanishi ikki yoqlama in'ikos qilish jarayonining vujudga keltirishi ma'lum bo`ladi. Shaxslarning o`zaro bir — birlarini aks ettirish jarayonining mohiyati inson fazilatlarini qayta esga tushirish, qayta tiklash va mujassamlashtirish jarayonida o`z aksini topadi.

**Xulosa:** Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, psixologik bilimlarni o`zlashtirish, ulardan amaliyotda foydalanish uchun fanning barcha sohalari bo`yicha ma'lumotga ega bo`lish lozim. Psixologiya o`qitishni qulaylashtirish faqat metodologik muammolar yechimini qidirish bilan kifoyalanib qolmasdan, balki ta'lim berish, o`zlashtirish, xabarlarini qabul qilishning yangi shakllari, vositalari va variantlarini yaratishni ham qamrab oladi. Ayniqsa, bugungi kunda iqtidorli bolalar, aqliy salohiyati yuksak o`quvchilar muammosi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Barotov Sh.R. Ta'limda psixologik xizmat. Oquv qo'llanma. Buxoro 2007.
2. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. Toshkent. 2003.
3. Tadjieva S.X., Sabirova D.G'. "Tanglik vaziyatida qolgan bolaga psixologik yordam ko'rsatish". T.: RBIMM, 2011.
4. Davletshin M.G., To'ychieva S.M. Umumiy psixologiya. Toshkent, 2002.
5. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya: Ped. in-t. talabalari uchun o'quv qo'llanma/ M.G.Davletshin umumiy tahriri ostida. – T.: O'qituvchi, 2000.